# PEDAGOGLARDA KOMPETENTLIK NAMOYON BO‘LISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLAR

***Sattarova Dilfuza Erkinbayevna***
*Texnologiya, menejment va kommunikatsiya instituti*
*Pedagogika va psixologiya kafedrasi katta o’qituvchisi*

**Annotatsiya**. Ushbu maqolada ta’lim o‘quv jarayonini tashkil etishda bo‘lajak pedagoglarda kompetentlik namoyon bo‘lishining psixologik xususiyatlarining psixologik xususiyatlari mavzusiga bag‘ishlangan. Shuningdek, maqola matnida kasbiy kompetentlik fenomeni va uning psixologik mohiyati, kasbiy kompetentlik shakllanishiga ta’sir etuvchi psixologik omillar,kasbiy bilim va ko‘nikmalar, kasbiy mahorat, kasbiy muhim sifatlar, kasbiy kompetentlikni ta’minlovchi psixologik determenantlar, bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy kompetentligining psixologik jihatlari kabi masalalarga to’xtalib o’tkanmiz.

**Kalit so‘zlar:** Kasb, kasbiy ko‘nikma va malakalar, kasbiy tayyorgarlik, psixologik o‘ziga xoslik, kasbiy o‘z-o‘zini rivojlantirish, kasbiy refleksiya, pedagog, kompetentlik, pedagogik, psixologik, bo‘lajak, ijtimoiy,zamonaviy, maktab, ta’lim, tarbiya jarayoni, o‘zlashtirish darajasi.

**KIRISH.** Hozirgi kunda jahonda ilm-fanga alohida e’tibor qaralimoqda shu jumladan mamlakatimizda ham ilm- fanga aloxida etibor qaratilmoqda.Jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy hayotida ro`y berayotgan katta o`zgarishlar kasbiy faoliyatning mazmuni va xarakterini sifat jihatdan qayta o`zgartirishni, bo`lajak o`qituvchilarning ijtimoiy kasbiy safarbarligi darajasini, raqobatbardoshligini belgilovchi sifatlarlarni talab etmoqda. Dunyoda qarama-qarshilik va ziddiyatlar tobora ortib, inson qalbi va ongini egallash, avvalambor, yoshlarning ma’naviy olamini izdan chiqarish, ularni o‘z qarindoshlariga qarama-qarshi qo‘yishga qaratilgan, el-yurtiga qarshi qo‘yishga qaratilgan tahdid va xurujlar kuchayib borayotgan bir paytda bugungi kun avlodining siyosiy faolligini oshirish, uning hayotda o‘z o‘rnini egallash, ta’lim-tarbiya maskanlarida yetuk inson bo‘lib yetishish masalalari dolzarb bo‘lib hisoblanadi. Keyingi o‘n yilliklar mobaynida bir qator Yevropa, AQSh, Rossiya va bizning mamlakatimizda, oliy ta’lim tizimi tubdan isloh qilina boshlandi. Bunda asosiy e’tibor, talabalarda egallayotgan mutaxassisligi bo‘yicha kompetensiya shakllanishi va takomillashuviga qaratilmoqda. Bugungi kunlarda jamiyat uchun butunlay yangi qiyofadagi mutaxassis talab qilinayapti. U faol ijodiy fikrlovchi, izlanuvchan, ilmiy axborotlarni mustaqil ravishda izlab topuvchi va ularni o‘z amaliy faoliyatida qo‘llovchi mutaxassis bo‘lib yetishishi lozim.Olimlarning fikriga ko‘ra, oliy ta’limni isloh qilish, yangilash, takomillashtirishda zamon talablariga javob beradigan mutaxassislarni tayyorlashning asosiy yo‘llaridan biri kompetensiya nuqtai nazaridan

yondoshuv hisoblanadi. Oliy ta'limda o'qish va tarbiyaning bunday uslubini joriy qilish o'z-o'zidan an'anaviy qarashlarni tubdan o'zgartirishni talab qiladi. Bilim, ko'nikma va tajribalar bu borada endi kamlik qilishi ko'zga tashlanmoqda. Hozirgi zamon pedagogika fani va bu borada olib borilayotgan ilmiy izlanishlarga nazar tashlasak, turli soha va mutaxassislik larga, fan va uslublarga, o'qitish usullari, texnologiyalariga juda ko'p e'tibor qaratilganligini sezamiz. Ammo ana shu pedagogik usullarni tushunish, ularni amaliy faoliyatda qo'llash masalasi eng dolzarb muammolardan biriga aylanganligini ta'kidlash mumkin. Pedagogika fani ham boshqa gumanitar va tabiiy fanlar qatori o'z o'rgamchak ipiga o'ralashib qolgandek tuyuladi. Muammo bu sohadagi pedagogik nazariy bilimlarni amaliy faoliyatga tatbiq etishda yaqqol ko'zga tashalanadi. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, o'qituvchilarda nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olish mahoratining yetishmasligi sezilmoqda. Demak, ko'plab o'qituvchi larni, pedagoglarni eskirib qolgan nazariy bilimlar yuki bosib qolyapti. Ularda zamonga xos tub o'zgarishlarga mos kelish, munosib bo'lish kabi sifatlar yetishmaydi. Huddi shu sifat kompetensiya – kompetensiya egasi bo'lish, kompetent pedagog nomini olish masalasi hisoblanadi. Psixologik mazmunga ko'ra, insonning biror sohaga bo'lgan nazariy va amaliy tayyorgarligi kasbiy kompetentlik sanalib, u kasbiy kompetentlik bilan kengroq tushuntiriladi. Hozirga qadar kompetensiya va kasbiy kompetentlik borasida ko'plab nazariy qarashlar mavjud bo'lib, aksariyat tadqiqotlar psixologiya va pedagogika fanlari doirasida amalga oshirilgan izlanishlar hisoblanadi. Garchi, pedagogika fanida ham kompetentlik muammosi keng qamrovli tadqiq etilsada, biroq kasbiy kompetentlikka oid psixologik bilimlar o'ta ahamiyatli sanalib, ularni o'rganish muammo borasida ko'plab qiziqarli va ahamiyatga molik ma'lumotlarni berishi tabiydir. Mohiyatan qaralganda, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda kompetensiyaviy yondoshuvning roli, o'z mazmunida kompetentlik, kasbiy kompetentlik, kasbiy–psixologik tayyorlash kabi masalalar bilan uzviy bog'liq sanalib, ularni tadqiq etish bo'lajak pedagog xodimlarni kasbiy faoliyatga tayyorlash bilan bog'liq muammolarga yechimlar olib kelishi ehtimoldan holi emas. "Kasbiy kompetentlik" mohiyatan, keng qamrovli psixologik tushuncha sanalib, unda shaxsga xos refleksiv, prognostik, analitik, tashkiliy, kommunikativ, proyeksion hamda tashkiliy jihatlar mujassamdir. Demak, kasbiy kompetensiya – insonning qadriyatlar olamiga kirishi hisoblanib, aynan unda inson mutaxassis sifatida o'zini anglaydi va yangilik yaratadi. Shuningdek, kasbiy kompetensiya insondagi sohaga oid bilim, ko'nikma, malaka, tajriba, qobiliyat, iste'dod, kasbiy faziyalatlar, motivatsiya hamda qator xarakterologik sifatlar mazmuniga ham javob beruvchi fenomen hisoblanadi. Uni tadqiq etish kasb va shaxs haqida o'ta ahamiyatli, qiziqarli ma'lumotlarni aniqlashga imkon berishi ehtimoldan holi emas. Katta psixologik lug'at kitobida keltirilishicha, kasbiy kompetensiya quyidagicha izohlanadi: "kasbiy kompetentlik bu – bilim, kasbiy o'z-o'zini anglash, tajriba to'plash, kasbiy istiqbolni baholay olish, xatti- harakatlar strategiyasini tanlash qobiliyati, kasbiy vazifalarni

samarali bajarish tajribasidir”.Mazkur ta’rifga muvofiq, kasbiy kompetensiya-faoliyat samaradorligini ta’minlovchi psixologik xususiyat sanalib, unda kasbiy vazifalarni hal etishning individual uslubi ham mavjud.

Yuqoridagilardan farqli oʻlaroq, E.G.Islamgaliyevning aytishicha, kasbiy kompetentlik fenomenining mazmuni faoliyat jarayoniga xos bilim, koʻnikma va usullar tizimida tahlil etilishi lozim ya’ni: – Shaxs faoliyati sifatida; – Shaxsning oʻziga xos xususiyati sifatida; – Mustaqil, samarali, mas’uliyatli xatti-harakat turi sifatida; – Akmeologik tushuncha sifatida; – Kasbiy mahoratning muhim tarkibiy komtponenti sifatida.

Mavzuiga oid adabiyotlar tahlili. Psixologiya fanida kasbiy kompetentlik va kasbiy muvofiqlik masalalari tadqiqotchilardan G. Gnedina, S.A. Popov, N.A. Svetkova, Ye.V. Snegova, A.P. Rojkova, A.A.

Jdanovich, I.Yu. Kuznetsov V.V. Bogdanova, A.K.

Markovoy, JI.M. Mitinoy, V.D. Shadrikova, I.A. Zimney, E.F. Zeyera, V.I. Baydenkolar tomonidan keng tadqiq etilgan boʻlib, mazkur mualliflar tomonidan olib borilgan izlanishlarning mazmuni keng miiyosda mazmunida aks etgan. Bundan tashqari, kasbiy kompetentlik fenomeni keng qamrovli kategoriya sanalib, unda psixologik, sotsiologik, pedagogik, falsafiy yondoshuvlar ham farqlanadi. Quyida ushbu yondoshuvlarda aks etgan oʻziga xos qarashlar haqida toʻxtalib oʻtishga harakat qilamiz.

Psixologik yondoshuvga koʻra, kasbiy kompetensiya – hozirgi zamon talablari asosida kasbiy vazifalarini mohirona bajara olish, oʻz bilim, koʻnikma va malakalarni amaliyotga qqoʻllay olish qobiliyatidir.

Bunda, bilim kasb uchun olingan barcha kerakli ma’lumotlar tizimi sanaladi. Malaka esa, olingan bilimlarni amaliyotda qoʻllash tajribasi sifatida qaraladi. Shuningdek, mazkur yondoshuvga binoan, kasbiy kompetensiyani tahlilida insondagi ishlash qobiliyati, motivatsiya darajasi, hayotiy vaziyatlarga tez moslasha olish koʻnikmasi kabilar ham, e’tiborga olinishi maqsadga muvofiq sanaladi. Kompetentsiya tushunchasining ilk metodologik asoslari, zamonaviy psixologik tadqiqotlarga mos holda, ilmiy omma ixtiyoriga havola etildi. Bundan tashqari, XX asr oxiri – XXI asr boshlarida amalga oshgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hodisalar shuningdek, sohalararo amalga oshirilgan ilg’or tadqiqotlar va zamonaviy jamiyatning kasblarga bo’lgan ehtiyoji kabilar ham keng ta’sir etdi.

Qolaversa, 19 asr oxiri va 20 asr boshlarida psixologiya va pedagogika fanlarida yaratilgan, kasbiy faoliyatning o’ziga xosliklari borasidagi nazariyalar va konptseptsiyalar, “kasbiy kompetentlik” fenomenini keng tadqiq etish zaruratini yanada oshira bordi. Kasbiy kompetentlikka oid yondashuvlar ichida psixologik qarashlar o’ziga xos sanalib, unda kasb va shaxsga ko’plab xarakterologik sifatlar, kasbiy muvaffaqqiyatni ta’minlovchi psixologik omillarning mazmuni aks etgan.

Mazkur yodashuvda ko'ra, muammoni o'rganishning ko'plab uslubiy jihatlari e'tirof etilib, ularga kasbiy faoliyatda shaxs imkoniyatlarini tekshiruvchi metodikalar, so'rovnomalar, testlar kabilarni misol qilish mumkin. A.M.Novikovning so'zlariga ko'ra, shaxsning faoliyatga nisbatan moslashuvchanlik qobiliyati, vazifalarni bajarishga bo'lgan ijodiylik darajasi, hamkorlik qilishga nisbatan istakning yuqoriligi kabilar kasbiy kompetentlikni tushuntiruvchi psixologik unsurlardir[3]. Darhaqiqat, har qanday faoliyatning samaradorligi uchun avvalo, xohish-istak va ijodkorlik o'ta ahamiyatlidir.Tadqiqotchilar Dj.Raven, K.Kurtlarning xulosalariga ko'ra, kasbiy kompetentsiya bu-shaxsning qadriyatlar tizimi, shaxs va jamiyat munosabatlari, shaxsning o'zini tuta bilish strategiyasi, faoliyatda jamiyat talablarini tezda idrok etish, o'z rolini anglash, qulay vaziyatlarni kutish, shaxslararo munosabatlarni yetarli darajada tushuna olish, xulq-atvor me'yorlariga to'liq amal qilish, kasbiy bilimlardan mohirona foydalana olish qobiliyati kabilarda ham aniq namoyon bo'ladi[4,42]. Demak, qadriyatlar tizimiga sodiqlik, jamiyatda o'z rolini anglash kasbiy kompetentlik shakllanganligining yaqqol ifodasi hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. Har bir shaxsda mehnat funktsiyalarini bajarishga va jarayonlarni tashkil etishga qobiliyat bo'lishi lozim. Agarda, ushbu sifatlar bo'lmasa, faoliyat samaradorligi haqida o'ylash haqiqatdan holi sanaladi.Kasbiy kompetentsiyaning shakllanganlik darajsi bu – bo'lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarlik holati bilan uzviy bog'liq sanalib, unda malaka, ishlash qobiliyati, o'z-o'zini rivojlantirish, kasbiy kamolotga erishish kabi jihatlar ajratiladi.

Sinaluvchilarning so'rovnoma bo'yicha to'plagan natijalari o'zaro o'rta darajadagi qiymatni qayd etgan.

Shuningdek, Kraskal-Uollis mezoniga ko'ra, birinchi shkala ijtimoiy-axloqiy yetuklik pedagogika univesiteti talabalarida120,70, texnika universiteti talabalarida 150,40 va 115,70 natija bilan o'rtacha farqni namoyon qilgan. (* – $p \leq 0,05$; ** – $p \leq 0,01$; *** – $p \leq 0,001$). Ma'naviy yetuklik shkalasi pedagogika yщnalishi talabalari 125,30, texnika yo'nalishi talabalari 143,90 va boshqa tekshiriluvchilar 128,50 kabi darajalar bilan o'zaro yuqori farqlarni namoyon etgan.

Keyingi shkala, ijtimoiy intellekt bo'yicha, pedagogika yo'nalishi tekshiriluvchilarida 126,70, markaziy okrug harbiy xizmatchilarida 150,40 va Shu bois, ko'pchilik tadqiqotchilar kasbiy kompetentsiyaning tarkibiiy elementlari mavzusidagi ilmiy ishida, kasbiy kompetentlikning qadriyatli- semantik, motivatsion, instrumental, individual- psixologik, konativ (tashqi dunyoni o'zlashtirishga bo'lgan munosabat) kabi tarkibiy qismlar o'rtasida o'zaro aloqalar mavjudligini alohida ta'kidlaydi. Masalan, Ye.V.Popova kasbiy kompetentsiyaning o'zgaruvchan tabiatini tavsiflab, uni kasbiy tayyorgarlik davri hamda kasbiy faoliyatning mazmuni bilan asoslashga harakat qiladi. Bizningcha, kasbiy kompetentlik masalasini psixologik jihatdan o'rganish quyidagi komponentlar bilan ham uzviy bog'liq sanaladi: – Motivatsion – qadriyatli komponent - bu bo'lajak mutaxassisning kasbiy faoliyatga

shaxsiy munosabati, uning o'quv motivatsiyasi, shaxsiy maqsadlari va qiziqishlari kabilar bilan bog'liq. Bundan tashqari, mazkur komponent faoliyatga bo'lgan ijobiy hissiy munosabat, muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlikka yetarlicha darajada javobning namoyon bo'lishi, hissiylik, kasbiy faoliyatning ahamiyati to'g'risida xabardorlik, kasbiy o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini tarbiyalash hamda o'zini takomillashtirish harakatlarida yaqqol namoyon bo'ladi; – Kognitiv komponent, bu har bir bo'lajak mutaxassisning soha haqidagi tushunchalari, kasbiy tasavvurlari, qobiliyati bilimlarni o'zlashtirishdagi yutuqlari, o'z kelajagiga bo'lgan munosabati kabilardan iborat; – Faoliyatga asoslangan komponent – bu mutaxassislarda shakllangan ko'nikma va malakalar darajasi bilan tavsiflanib, unda umumiy kasbiy maxsus bilimlar shuningdek, mavjud ko'nikma va qobiliyatlardan samarali foydalana olish qobiliyati, kasbiy faoliyatni yanada rivojlantirish va такомиллаштиришга тайёргарлик кабилар орқали тушунтирилади; – Shaxslilik komponent – bu shaxsga xos individual psixologik xususiyatlar to'plamidan iborat bo'lib, u o'qish uslubi, faoliyat sur'ati hamda o'zaro munosabatlardagi sifatlar va boshqalar bilan tavsiflanadi.

Xulosa qilib yuqorida ta'kidlaganimizdek, o'qituvchilik kasbini tanlagan har bir pedagog o'ziga shu kasbni sevishi yoki sevmasligi to'g'risida savol beradi. Zero masalaning yana bir muhim tomoni borki, bu bo'lajak o'qituvchi pedagogik qobiliyatga egami yoki yo'qmi degan muammo paydo bo'ladi.

## REFERENCES:


1. Мирзиёев Ш.М. Таълим-тарбия тизимини такомиллаштириш масалалари бўйича https://president.uz/uz/lists/view/3924
2. Усманов Р.Н. Интеллектуализация процесса принятия решений в условиях нечеткой исходной инфомации // Aloqa Dunyosi. – Ташкент, 2007.
3. Усманов Р.Н. К вопросу интеграции нечетко-множественного подхода в процесс диагностики состояний сложных систем // Химическая технология. Контроль и управление. - Ташкент, 2006.
4. Жуманиёз Султонович Раматов, Машкура Инамжановала Рахимова, & Миршод Нўъмонович Ҳасанов (2022). МАФКУРАВИЙ ТАҲДИДЛАРНИ ОЛДИНИ ОЛИШДА ИСЛОМИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ. Academic research in educational sciences, 3 (6), 1031-1036.
5. З. Н. Бобошев, М.Н.Ҳасанов, & Э.А.Нуруллаев. (2022). АБУ НАСР ФОРОБИЙНИНГ ПЕДАГОГИКА ФАНИНИНГ АСОСЧИСИ СИФАТИДА .JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS, 4(3), 108–115. Retrieved fromhttp://wsrjournal.com/index.php/new/article/view/623
6. Ж. С. Раматов, М. Ҳасанов, & Лочин Азаматович Валиев (2022). АУРОБИНДО ГХОШ ҲАЁТИ ВА ИЛМИЙ ФАЛСАФИЙ МЕЪРОСИ. Academic research in educational sciences, 3 (6), 1161-1169.
7. J. S. Ramatov, M. Hasanov AL-FAROBIY SIYOSIY DAVRAN VA IJTIMOIY-MADANIY AHVOL // Pedagogik fanlarda akademik tadqiqotlar. 2022 yil. 6-son. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/al-farobiy-davridagi-siyosiy-va-izhtimoiy-madaniy-vaziyat (kirish sanasi: 12.11.2022).

8. М.Н.Ҳасанов, А.А.Азимбаев, Ҳалилов Ў., & Каримов Б. (2022). АБУ НАСР ФОРОБИЙНИНГ ШАХС МАЪНАВИЙ КАМОЛОТИГА ДОИР ҚАРАШЛАРИ .JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS, 4(3), 147–153. Retrieved from http://www.wsrjournal.com/index.php/new/article/view/629
9. Ж. С. Раматов, & М. Ҳасанов (2022). МАФКУРАВИЙ ТАҲДИДЛАРНИ ОЛДИНИ ОЛИШДА АХЛОҚИЙ ТАРБИЯНИНГ АҲАМИЯТИ. Academic research in educational sciences, 3 (6), 952-956.
10. Ramatov, J.S., Valiev, L.A., Xasanov, M.N. XIX ASRDA HINDISTONDAGI IZHTIMOII - FALSAFIY JARAYONLAR // ORIENSS. 2022. №6. URL:https://cyberleninka.ru/article/n/hih-asrda-indistondagi-izhtimoiy-falsafiy-zharayonlar (kirish 12/11/2022).
11. Ф. А. Кушаков, М. Н. Ҳасанов, Р. Ў. Баратов, Ж. С. Раматов, & С. Ҳ. Султанов (2022). ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА ИНСОН ҲУҚУҚЛАРИ ВА СЎЗ ЭРКИНЛИГИ. Academic research in educational sciences, 3 (10), 803-810.
12. Раматов, Ж. С., Муратова, Д., Султанов, С. Ҳ., Тухтабоев, Э., Кушаков, Ф., & Хасанов, М. Н. (2022). ИЖТИМОИЙ АДОЛАТ ВА ҚАДРИЯТЛАР ПЛЮРАЛИЗМИ. World scientific research journal, 8(1), 102-108.
13. Раматов, Ж.С., Баратов, Р.Ў., Султанов, С.Ҳ., Муратова, Д.А., Хасанов, М.Н., & Эрниёзов, У.К. (2022). ЁШЛАР ЗАМОНАВИЙ МАДАНИЙ ҚИЁФАСИ ВА УМУМИНСОНИЙ ҚАДРИЯТЛАР ТУШУНЧАСИНИНГ МАЗМУН-МОҲИЯТИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (10), 376-386.
14. Hasanov, M., & Tuhtaboev, E. (2021). THE PERFORMANCE OF THE PERFECT MAN IN THE EASTERN RENESSANCE (ON THE EXAMPLE OF FARABI'S VIEWS). Innovative Technologica: Methodical Research Journal, 2(05), 1-6.
15. Hasanov M., Tuhtaboev E. THE PERFORMANCE OF THE PERFECT MAN IN THE EASTERN RENESSANCE (ON THE EXAMPLE OF FARABI'S VIEWS) //Innovative Technologica: Methodical Research Journal. – 2021. – Т. 2. – №. 05. – С. 1- 6.
16. М.Н.Ҳасанов, Д.А.Ҳафизов, Р.Х.Тоиров, & Х.Қ.Болтабоев. (2022). АБУ НАСР ФОРОБИЙ ЯШАГАН ДАВРДАГИ ИЛМ-ФАН ВА ТАЪЛИМ-ТАРБИЯ . JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS, 4(3), 137–140. Retrieved fromhttp://www.wsrjournal.com/index.php/new/article/view/627
18. Kaipbergenova, D. (2016). CHET TILI O’QITUVCHILARINING KASBIY VAZIFALARI VA PEDAGOGIC MAHORATI HAQIDA. ВЕСТНИК КАРАКАЛПАКСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ИМЕНИ БЕРДАХА, 33(4), 48-50.
19. Orakbayevna, K. D., Normuminovich, M., & Muxiddinovna, M. Z. (2021). English language teaching methodology for non-native speakers. Linguistics and Culture Review, 5(S3), 1721-1725.
20. Orakbayevna, K. D. (2022, February). SYNTACTIC AND SEMANTIC FEATURES OF COMPARISON IN ENGLISH, UZBEK AND RUSSIAN LANGUAGES. In Conference Zone (pp. 145-147).
21. KHUSENALIYEVNA, K. D., CHORIYEVNA, A. Z., & ORAKBAYEVNA, K. D. (2021). Lexico-semantic features of technical teams of English and Uzbek languages. Journal of Contemporary Issues in Business and Government, 27(2), 4083-4088.
22. Orakbayevna, K. D. (2022). THE IMPORTANCE OF GRAMMAR IN LEARNING A FOREIGN LANGUAGE. Confrencea, 7(7), 69-72.
23. Orakbayevna, K. D. (2022). Using effective language learning strategies in teaching English. Texas Journal of Philology, Culture and History, 2, 1-3.

24. Orakbaevna, K. D. (2022). USING THE PRINCIPLE OF UNITY IN EDUCATION. PEDAGOG, 1(4), 1467-1473.
25. Kaipbergenova, D. (2017). THE IMPORTANCE OF MATERIAL DESIGNING IN LANGUAGE TEACHING. ВЕСТНИК КАРАКАЛПАКСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ИМЕНИ БЕРДАХА, 34(3), 62-63.
26. Kaipbergenova, D. (2016). CHET TILI O'QITUVCHILARINING KASBIY VAZIFALARI VA PEDAGOGIC MAHORATI HAQIDA. ВЕСТНИК КАРАКАЛПАКСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА ИМЕНИ БЕРДАХА, 33(4), 48-50.
27. Бўрихаджаева, М.С. (2023). МАМЛАКАТ ИҚТИСОДИЁТИДАВТОМОБИЛ ТРАНСПОРТИ КОРИДОРЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШИСТИҚБОЛЛАРИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and socialsciences, 3 (1-2), 338-345.
28. M.S.Bo'rixadjayeva. (2023). YANGI O'ZBEKISTONDA TA'LIMMUASSASALARIDA BERILAYOTGAN E'TIBOR VA TALABALARNI IMLIYFAOLYATGA YO'NALTIRISH . PEDAGOGS Jurnali, 28(1), 68–75. Retrievedfrom http://pedagoglar.uz/index.php/ped/article/view/3107
29. M.S.Bo'rixadjayeva. (2023). PEDAGOGIKNING KASBIY MAHORATINI SHAKLANTIRISH INTERFAOL USULLARI . World Scientific Research Journal, 12(2), 128–133. Retrieved from http://wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2541
30. Bo'rixadjayeva, M. S. (2023). YANGI O'ZBEKISTONDA IQTISODIY TAFAKKURNI SHAKLLANISHINING USULLARI. World scientific research journal, 12(2), 134-138.